

MAXDUMI A'ZAM KOSONIY MA'NAVIY MEROSINING MANBASHUNOSLIK TADQIQI VA IJTIMOIIY-FALSAFIY AHAMIYATI

Bo'riboyev Abdulvohid

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: Narimonov Qahramon

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti, Ph.D

Annotatsiya: Ushbu maqolada XVI asr Markaziy Osiyo ma'naviy hayotining yirik namoyandasi, naqshbandiya tariqatining yetuk nazariyotchisi Sayyid Ahmad ibn Jaloliddin Kosoniy hayoti va ilmiy-falsafiy merosi manbashunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etilgan. Muallif allomaning “Majmua ar-rasoil”, “Tanbih us-salotin” va “Risolai Boburiya” kabi asarlarini tahlil qilib, undagi “Vujud dehqoni”, adolatli hukmdor timsoli va komil inson g'oyalarining ijtimoiy-axloqiy ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Maxdumi A'zam, naqshbandiya, tasavvuf, manbashunoslik, Sayyid Ahmad Kosoniy, “Vujud dehqoni”, “Tanbih us-salotin”, ijtimoiy-falsafiy meros, komil inson, Dahbed.

Abstract: This article explores the life and socio-philosophical heritage of Sayyid Ahmad ibn Jalaluddin Kosoni, a prominent figure in 16th-century Central Asian spiritual life and a major theorist of the Naqshbandiya Sufi order, from a source-study perspective. The author analyzes works such as “Majmua ar-rasail”, “Tanbih us-salatin” and “Risala-i Baburiya” highlighting the socio-ethical significance of the “Farmer of Existence” concept, the image of a just ruler, and the idea of the Perfect Human.

Key words: Makhdumi Azam, Naqshbandiya, Sufism, source studies, Sayyid Ahmad Kosoni, “Farmer of Existence”, “Tanbih us-salatin”, socio-philosophical heritage, perfect human, Dahbed.

Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviyati va madaniyati tarixida XVI asr o'ziga xos o'rin tutadi. Bu davr nafaqat siyosiy o'zgarishlar, balki tasavvuf falsafasining jamiyat hayotiga chuqur kirib borishi, naqshbandiya tariqatining rivojlanishi bilan ham xarakterlanadi. Ushbu davrning eng yirik namoyandalaridan biri, naqshbandiya tariqatining yirik nazariyotchisi, buyuk mutafakkir va siyosiy arbob Sayyid Ahmad ibn Jaloliddin Kosoniy(866/1461-949/1542) bo'lib, u xalq orasida “Maxdumi A'zam” (Ulug' xoja) unvoni bilan mashhurdir.

Alloma merosini o'rganish bugungi kun manbashunoslik maktabi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib, uning asarlari nafaqat diniy-irfoniy, balki ijtimoiy-axloqiy va siyosiy jihatdan ham ulkan ahamiyatga ega. Allomaning hayoti va faoliyati

haqida uning shogirdlari va izdoshlari tomonidan yozilgan “Rashahot ayn-ul-hayot”, “Silsilat ul-orifin”, “Jome’ ul-maqomot” kabi manbalar bugun biz uchun asosiy ma’lumotlar xazinasi bo’lib xizmat qiladi¹.

Ma’lumotlarga ko’ra, Maxdumi A’zam hijriy 866-yil, milodiy 1461-yilda Farg’ona vodiysining Koson shahrida Sayyid Jaloliddin ibn Jamoliddin oilasida dunyoga keladi. Ulug’ zotning ota-onalari Muhammad alayhissalom avlodlaridan bo’lib, bu to’g’rida ko’plab tarixiy manbalar, qabr toshlari va tarixiy obidalarining peshtoqlarida ma’lumotlar mavjud. Shuni ham alohida ta’kidlash joizki, nasabnoma va shajara masalasiga to’xtaladigan bo’lsak, O’rta Osiyoda shajaralari eng ko’p qayd etilgan va yozilgan tabaqa Sayyid Ahmad Kosoniy avlodidir. Jumladan, “Ravoyihul quds”², “Silsilat us-siddiqiyn va anis ul-oshiqiyn”³, “Jome’ ul-maqomot”⁴, “Tazkirai azizon”⁵ va boshqa manbalarda mutasavvifning 22 pushtdan so’ng payg’ambarimizga avlod bo’lishi zikr qilinadi.

U zot yoshligida dastlab otasi Mavlono Jaloliddindan so’ngra Mavlono Mir Sayid Alidan saboq oldi. Bundan tashqari ayrim tadqiqotlarda Sayyid Ahmadning Mullo Ziyos ismli ustozdan ham ta’lim olganligi to’g’risida ma’lumotlar bor⁶. Keyinchalik, Sayyid Ahmad Kosoniy bilimini oshirish uchun ustoz Mir Sayyid Alining maslahati bilan Xoja Ahror Valiyning shogirdi Mavlono Muhammad Qozi huzuriga borib, ul zotga shogird tushadi. Shu tariqa Sayyid Ahmad Kosoniyning naqshbandiya tariqatidagi faoliyati boshlanadi.

Allomaning ma’naviy merosi haqida gap ketganda, uning 30 dan ortiq risolalarini o’z ichiga olgan “Majmua ar-rasoil” asari alohida diqqatga sazovordir. Bu risolalar o’z mazmun-mohiyatiga ko’ra tasavvuf falsafasining eng nozik qirralarini yoritib beradi. Allomaning qarashlarida borliq masalasi, insonning bu olamdagi o’rni va vazifasi markaziy o’rinni egallaydi. U o’zining “Risolai vujudiya” va boshqa asarlarida borliqni ilohiy nur in’ikosi deb biladi⁷.

Uning falsafasida inson borliqning gulto’ji bo’lib, u o’zining ruhiy poklanishi orqali ilohiy haqiqatga erishishi lozim. Maxdumi A’zam inson qalbini bir dehqonning dalasiga o’xshatadi. Bu esa uning mashhur “Vujud dehqoni” tamoyilida o’z aksini topgan. Allomaning fikricha, dehqon o’z yerini tikan va begona o’tlardan qanday tozalasayu, unga yaxshi urug’ sepib, hosilini kutsa, inson ham o’z qalbini shunday nafsiiy illatlardan tozalashi, unga ixlos va iymon urug’ini ekishi zarur.

Bu g’oya nafaqat o’sha davr uchun, balki bugungi kunning tarbiyaviy tizimi uchun ham muhimdir. Mehnatsevarlik, halollik va ruhiy poklik tushunchalari

¹ Zoirov Erkin. Maxdumi A’zamning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari. – Toshkent: “Turon zamin ziyo” nashriyoti, 2015. – B.14.

² Qarang: Maqsud ibn Nosiriddin Buxoriy. Ravoyihul quds. Kattaxonxo’ja Dahbediy shaxsiy kutubxonasidan.

³ Qarang: Do’st Muhammad Folizkor. Silsilat us-siddiqiyn va anis ul-oshiqiyn. Qo’lyozma. O’zR FASHI № 2471/111.

⁴ Qarang: Abul Baqo ibn Bahovuddin. Jome’ ul-maqomot. Qo’lyozma. O’zR FASHI № 7638.-253 v.

⁵ Qarang: Muxammad Sodik Qoshgariy. Tazkirai azizon. Kattaxonxo’ja Dahbediy shaxsiy kutubxonasidan.

⁶ Qarang: Ma’naviyat yulduzlari. –T.:A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2001. B.274.

⁷ Zoirov, Erkin. Maxdumi A’zam (risola). – Toshkent: “Abu Matbuot-Konsalt” nashriyoti, 2011. – B.9.

Maxdumi A'zam ijodida uzviy bog'liqdir. Alloma "Dil ba yoru dast ba kor" tamoyilini amaliy hayotga tatbiq etgan holda, o'zi ham dehqonchilik bilan shug'ullangan va bu orqali tasavvufni tarkidunyochilikdan xalos etib, jamiyat bilan uyg'unlashtirgan. Uning Samarqand yaqinidagi Dahbed qishlog'iga ko'chib kelishi va u yerni obod qilib, ulkan bog'-rog'lar barpo etishi buning yaqqol isbotidir.

Allomaning boy merosi ichida "Risolai Boburiya" asari alohida o'rin tutadi, chunki u buyuk davlat arbobi, shoir va sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur mirzoga bag'ishlangan bo'lib, o'sha davrdagi siyosiy va ma'naviy birdamlikning o'ziga xos timsolidir. Ushbu risola nafaqat tasavvufiy masalalarni, balki hukmdor va ma'naviy rahnoma o'rtasidagi o'zaro aloqalarni, davlatni boshqarishda axloqiy me'yorlarning ahamiyatini ham ochib beradi. Ushbu risola Boburning iltimosiga ko'ra yozilgan bo'lib, unda alloma podshohga darveshlik va podshohlikning mohiyati haqida o'gitlar beradi. Maxdumi A'zamning fikricha, haqiqiy podshoh – bu xalqning xizmatkori va adolat peshvosidir. Alloma Bobur Mirzoning she'riyatiga yuqori baho bergan va u bilan doimiy muloqotda bo'lgan. Bu munosabatlar shuni ko'rsatadiki, o'sha davrda ma'naviyat va siyosat bir-biriga qarshi qo'yilmagan, aksincha, ma'naviyat siyosatning adolatli bo'lishini ta'minlagan⁸.

Maxdumi A'zamning ijtimoiy-siyosiy qarashlari "Tanbih us-salotin" (Sultonlarga tanbeh) asarida yanada kengroq yoritilgan. Unda hukmdorlarning jamiyat oldidagi mas'uliyati, zulmdan saqlanish va raiyatning haq-huquqlarini himoya qilish masalalari falsafiy tahlil etilgan. Alloma jamiyatni bir butun tana deb bilsa, podshohni o'sha tananing yuragi deb ataydi. Yurak sog'lom bo'lsa, butun tana sog'lom bo'lishi kabi, podshoh adolatli bo'lsa, butun mamlakat obod bo'ladi.

Allomaning bu xildagi chuqur falsafiy tahlillari uning "Risolai Fanoiya", "Risolai Mir'ot us-safo", "Risolai Asror un-nikoh" kabi o'nlab asarlarida uchraydi. Bu asarlarning qo'lyozmalari hozirda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotganligi bizning boy ma'naviy merosimizdan dalolat beradi. Mutaakkirning ma'naviy olami shunchalik kengki, u insonni o'zini anglashga, borliq sirlarini o'rganishga va ijodiy mehnatga chorlaydi.

Maxdumi A'zam har bir jamiyatning kelajagi uning qo'ynida o'sib, ulg'ayayotgan yoshlarning yetarli va to'liq parvarish olishiga bogliq, degan g'oyani ilgari surganlar. Bu masalada loqaydlik qilish yoki e'tiborsiz bo'lishning oqibati halokat ekanligidan ogoh etganlar⁹.

Alloma asarlarining til xususiyatlari ham manbashunoslikda alohida mavzudir. U asosan forsiy va arabiy tillardan foydalangan bo'lsa-da, uning tili o'sha davr turkiy tili va madaniyati bilan sug'orilgan edi. Uning risolalari sodda, lo'nda va mantiqiy kuchli

⁸ Maxdumi A'zam Dahbediy (Tarjima, so'zboshi, tatqiqot va izohlar muallifi Komilxon Kattaev). "Risolai Boburiya". Samarqand: "Samarqand" nashriyoti, 2011. – 100 b.

⁹ Zoirov, Erkin. Maxdumi A'zam (risola). – Toshkent: "Abu Matbuot-Konsalt" nashriyoti, 2011. – B.25.

qilib yozilgan bo‘lib, bu ularning keng tarqalishiga sabab bo‘lgan.

Maxdumi A‘zam melodiy 1542 yil 8 may dushanba kuni (xijriy 949 y. 21 muharram) Samarqand shahridan 12 km. shimol tomonda joylashgan Dahbed qishlog‘ida vafot etganlar. Bu sana barcha manbalarda aniq keltiriladi. Maxdumi A‘zamning vasiyatlariga ko‘ra uni o‘zi yaratgan bog‘ning o‘rtasidagi murut (nok) daraxtining ostiga dafn etishgan. Abu Tohirxojaning “Samariya” asarida yozilishicha ““Qutbi olam raft voy” (“Olam qutbi ketdi”) so‘zi Maxdumi A‘zam vafotining tarixidir. Bu tarix abjad hisobida 949 ni beradi. Samarqand shahri bilan Dahbed orasi bir tosh (8 chaqirimlik) yo‘ldir”¹⁰

Alloma vafotidan so‘ng uning farzandlari va shogirdlari uning yo‘lini munosib davom ettirdilar. Dahbeddagi u barpo etgan majmua asrlar davomida ziyoratgoh va ilm-fan o‘chog‘i bo‘lib qoldi. 1992 yildayoq Maxdumi A‘zam ziyorotgohini obodonlashtirildi. 1993 yili Dahbed mavzeida Maxdumi A‘zamning hayoti va ijodiy-faoliyatiga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya o‘tkazildi¹¹.

Alloma asarlarini o‘rganishda bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalari va raqamlashtirish jarayonlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Uning qo‘lyozmalarini elektron variantga o‘tkazish, ularning ilmiy-izohli tarjimalarini chop etish yosh olimlar oldidagi dolzarb masaladir. Zero, Maxdumi A‘zam merosi faqat tarix emas, balki kelajak avlod uchun ma‘naviy dasturilamallik vazifasini o‘taydi. Uning “Komil inson” haqidagi ta‘limoti bugungi yoshlarimizning tarbiyasida, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida voyaga yetkazishda xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash lozimki, Maxdumi A‘zam Kosoniyning boy merosi o‘zbek davlatchiligi va madaniyati tarixining ajralmas qismidir. Uning manbalarda saqlanib qolgan har bir satri, har bir g‘oyasi biz uchun bebaho xazinadir. Biz ushbu merosni qanchalik chuqur o‘rgansak, o‘z tariximizni shunchalik yaxshi bilamiz va kelajakka mustahkam qadam bilan boramiz.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Abu Tohirxoja Samarqandiy. Samariya. – Toshkent: Kamalak, 1991. – 82 b.
2. Komilxon Kattaev. Maxdumi A‘zam va Dahbed tarixi. – Samarqand: Sug‘diyona, 1994. – 80 bet.
3. Maxdumi A‘zam Dahbediy (Tarjima, so‘zboshi, tatqiqot va izohlar muallifi Komilxon Kattaev). “Risolai Boburiya”. Samarqand: “Samarqand” nashriyoti, 2011. – 100 b.
4. Turayev, Baxtiyor Omanovich. Maxdumi A‘zam (hayoti va ilmiy-ma‘naviy merosi). Toshkent: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020. – 48 b.

¹⁰ Abu Tohirxoja Samarqandiy. Samariya. – Toshkent: Kamalak, 1991. – B. 56.

¹¹ Turayev, Baxtiyor Omanovich. Maxdumi A‘zam (hayoti va ilmiy-ma‘naviy merosi). Toshkent: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020. – B.24.

5. Zoirov Erkin. Maxdumi A'zamning falsafiy va ijtimoiy-siyosiy qarashlari. – Toshkent: “Turon zamin ziyo” nashriyoti, 2015. – 144 b.
6. Zoirov, Erkin. Maxdumi A'zam (risola). – Toshkent: “Abu Matbuot-Konsalt” nashriyoti, 2011. – 28 b.
7. www.wikipedia.org
8. www.xurshid.davron.uz